

**MUSIQA TINGLASH FAOLIYAT TURINI TASHKIL ETISH  
YO'LLARI VA MEKANIZMLARI**

*Jizzax davlat pedagogika universiteti*

*“Musiqqa ta’limi” kafedrasini o’qituvchisi.*

***Karimov Saxob Baxromovich.***

*E-mail address: [karimovsaxob1@gmail.com](mailto:karimovsaxob1@gmail.com).*

*[Tel:+998 88-329-00-71](tel:+998883290071)*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada musiqqa tinglash faoliyat turida fanlararo o’zaro aloqadorlikni tashkil etishning yo’llari va mexanizmlari haqida so’z boradi.*

***Kalit so’zlar:*** *Musiqqa tinglash, fanlararo aloqadorlik, musiqqa darslari, o’quvchilar, ta’lim tizimi, badiiy estetik.*

Har qanday jamiyatning ravnaqi, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy barqarorligi uning fuqorolarining birinchi navbatda o’sib kelayotgan yosh avlodning aqliy, ahloqiy, siyosiy, madaniy va estetik jihatdan rivojlanganlik darajasiga bog’liq bo’ladi. Mustaqil rivojlanish yo’lidan borayotgan jamiyatimizning ma’naviy yangilanish va yuksalishida Kadrlar tayyorlash milliy modeli bosh mezon sifatida muhim omil hisoblanadi .

Darhaqiqat, barkamol avlodni shakllantirishdek ulkan vazifani amalga oshirish dolzarb vazifa qilib qo’yilgan hozirgi davrda ta’lim tizimining har bir bog’ini o’zining alohida o’rni va maqsadiga ega bo’lib, milliy dasturda belgilangan vazifalarni muvoffaqiyatli amalga oshirish ushbu bo’g’inlarning holati va rivojlanish darajasiga ularning o’zaro uyg’unligini o’qitishning eng samarali shakl usul vosita va texnologiyalarini uzluksiz ravishda takomillashtirib borishni taqozo etadi.

Respublikamizdagi amaldagi ta’lim tizimida umumiy o’rta ta’lim eng muhim shakllantiruvchi bosqich bo’lib , umumta’lim maktablarida o’qitiladigan musiqqa madaniyati fani o’zining tashkiliy uslubiy pedagogik hamda ta’limiy

maqsad va vazifalarini amalga oshirishda o'zining tuzilishi hususiyati bilan boshqa fanlardan keskin ajralib turadi. Musiqa darslari odatda besh faoliyat negizida tashkil etiladi. Bu faoliyatlar alohida ma'lum bir pedagogik maqsad va vazifalar bilan belgilangan bo'lmada, pirovardida ularning barchasi o'quvchilarni badiiy estetik, ma'naviy, madaniy, ahloqiy rivojlanishiga, bir so'z bilan aytganda musiqa madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Fan o'qitilishining yana bir alohidalik xususiyati ushbu faoliyatlarning har biri musiqiy fanlar tuzilmasidagi alohida ma'lum bir fanga oid bilim tushunchalarga tayanadi. Masalan, musiqa tinglash faoliyatini olib qaraydigan bo'lsak, bu faoliyat ayni vaqtda musiqa asarlarini tinglash mazmunida ularni shakli, tuzilishi, janri g'oyaviy – badiiy mazmuni ijrochilik an'analari, uslublari ko'p ovozlilik xususiyatlari, zamonaviy, xalq musiqa ijodiyoti kompozitorlik uslubiga tegishli, shuningdek, qardosh va chet el kompozitorlari ijodiga oid bilimlarni o'quvchilarga etkazishi bilan ajralib turadi. Mulohaza qilib qaraydigan bo'lsak, bu o'rinda musiqa asarlarini shakli, tuzilishi, janriga oid bilim va tushunchalarini berishda o'qituvchi o'zining "Musiqa asarlari tahlili" va "Musiqa nazariyasi"ga oid bilimlariga tayanadi. Asarning g'oyaviy – badiiy mazmuni, mualliflari haqidagi ma'lumotlar musiqa tarixi va adabiyot faniga aloqadorligi bilan, asarni badiiy ijrosi bilan bog'liq lad tonalligi, o'lchovi, xarakteri, qo'llanilgan dinamik belgilarni sharhlashda musiqa nazariyasiga oid bilimlarga murojat qilinadi. Darsning jamoa bo'lib kuylash" faoliyati esa bevosita Xor va xorhunoslik", "Drijorlik" fanlari negizida olib boriladi, Musiqa savodi faoliyatida ham "Musiqaning elementar nazariyasi". "Musiqa asarlari tahlili", "Garmoniya" fanlariga oid qoida va qonunlar uyg'un mujassamlashadi.

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy "Kuy, qo'shiq ilhombaxsh, shifobaxsh xamda xayotbaxsh kuch"<sup>1</sup> deb takidlagan. Mashxur rus olim – pedagoglardan D.B.Kobalevskiy: "Musiqa tarbiyasi – bu faqat insonni musiqachi qilib tarbiyalash emas, eng avvalo, yosh murg'ak bola, so'ngra shaxsni barkamol xislat va fazilatlar bilan kamol toptirish vazifasini o'z burchi deb biladi. Musiqa san'atining o'ziga xos xususiyati uning tovushlar obrazi orqali kishilarning ichki

---

<sup>1</sup> I.Rajabov. Maqom asoslari.T,1992.  
[www.tadqiqotlar.uz](http://www.tadqiqotlar.uz)

dunyasini, xis – tuyg'ularni, fikr va kayfiyatlarini ifodalay olishdadir. Musiqa san'atining xar xil vaziyatlari orqali ayniqsa, kishining xis – tuyg'ulariga chuqur tasir etadi. Uni tushunishda badiiy asarlarning mazmunini ongli idrok etish bilan bir qatorda emotsional ruhiy idrok etish qobiliyatiga ega bo'lish xam muhim rol o'ynaydi. Bilamizki, musiqa asari xam ongli, xam xissiy idrok etilgandagina tinglovchilarda chuqur tassurot qoldiradi, estetik kechinma paydo bo'ladi. Shu o'rinda buyuk Sharq mutafakkiri Abu Nasr Forobiyning musiqa ilmini keltirib chiqargan sabablar haqidagi fikrlarini qayd etish maqsadga muvofiqdir, -“Men tasdiqlaymanki, substansiya xarakatiga ega bo'lgandan so'ng ovozga xam ega bo'ldi va bu ovoz uch turga bo'linadi; xususan, baland, past va o'rtacha. Ovozlar to'g'risidagi ilm shu ma'noda foydaliki, u o'z muvozanatini yo'qotgan (odamlar) xulqini tartibga keltiradi va muvozanatda bo'lgan (odamlar) xulqining muvozanatini saqlab turadi. Bu ilm tananing salomatligini uchun xam foydalidir”<sup>2</sup>.

Ko'rinib turibdiki buyuk allomamiz ma'no kasb etgan bu fikrlari musiqa va kuyga bo'lgan e'tiborini yanada oshiradi.

Musiqa tinglash jarayonida esa asarlarni tahlil qilish, so'ngra o'quvchilarga musiqa asaridan olgan ta'surotlariga ko'ra asar g'oyaviy badiiy mazmunida ifodalangan obrazlarni o'z tasavvurlarida gavdalantirish va unga mos rasmlar chizish kabi topshiriqlar o'quvchilardan rasm chizmachilik fanlaridan olgan bilimlarga tayanib ish tutishlarini taqozo etadi. Nota belgilarini chiroyli qilib ifodali, musiqada ifoda etilgan obrazlar ( gullar, qushlar, tabiat manzaralari, hayvonlar, daraxtlar va hokazo ) ni rasmlarda ifodalash o'quvchilarni ushbu fanlarga qiziqishlarini ortishi va munosabatlarida yaxshi o'zgarishlar sodir bo'lishiga turtki beradi .

Xuddi shuningdek, musiqa darslarida matematikaga oid ( notalar cho'zimi , bo'linishi , sanalishi , intervallar, ladlarni ton tuzulishi ) bilimlardan foydalanishni ham keng imkoniyatlari mavjud .

Bundan ko'rinadiki, musiqa fani o'z ta'limiy va tarbiyaviy vazifalarini juda keng doiradagi fanlar aloqadorligisiz amalga oshirishni tasavvur etish va bu haqda

---

<sup>2</sup> A.M.Forobiy. Fozil odamlar shaxri.T, 1993.176-bet  
[www.tadqiqotlar.uz](http://www.tadqiqotlar.uz)

fikr yuritish ham aslo mumkin emas.

**Adabiyotlar ro'yhati**

- 1.Musiqa o'qitish nazariyasi metodikasi va maktab repertuari.  
G.M.Sharipova, D.F.Asamova, Z.L.Xodjayeva. Toshkent 2014.
- 2.Musiqa va uni o'qitish metodikasi. G.M.Sharipova. Toshkent 2013.
- 3.Musiqa ta'limida fanlararo aloqadorlik. I. Qudratov, E.Abdukarimova.  
Samarqand 2015.